
QO'SHTEPA TUMANIDAGI BARCHA MAHALLALARDA OBODONLASHTIRISH TADBIRLARI UYUSHQOQLIK BILAN TASHKILLANMOQDA



Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda 30 iyuldan - 30 avgustgacha "Obodonlashtirish oyligi" e'lon qilingan.

Yurtimiz istiqlolining 32 yilligiga munosib taraddud ko'rish va uni munosib nishonlash, hududlarda obodlik hamda ko'rkamlikni ta'minlash maqsadida Qo'shtepa tumanidagi 51 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida obodonlashtirish tadbirlari uyushqoqlik bilan tashkillanmoqda.

Obodonlashtirish ishlari jarayonida mahallalar, aholi punktlari, ko'p qavatli uylar, hovlilar atrofi, ziyoratgoh va qabristonlar, bog' va sayilgohlarni tartibga keltirish, chiqindilarni belgilangan joyga chiqarib tashlash, ko'chalarni ta'mirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-08-12 22:32:53